

Yashil

IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 132 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
S.S. Ismailov	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
Idrisov Alisher Otajonovich	
Institutsiyal investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari.....	53
Sultanov Maximud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitora Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития ЭКОНОМИКИ	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihibalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Oценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций	116
Умидда Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Сайдамир Фузулiddинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Yusupov Aziz Shuxratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tадqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llarining nazariy asoslari hamda mavjud muammolar tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada rivojlangan xorijiy davlatlarning valyuta operatsiyalari va bank sektorining rentabelligi o'tasidagi bog'liqlikni O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida foydalanishni joriy etishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: valyuta, valyuta tizimi, valyuta operatsiyalari, tijorat banklari, valyuta kursi, moliyaviy operatsiyalar, tijorat brokerlari, valyuta siyosati, valyuta ayriboshlash, foiz stavkalari, leveraj, rentabellik.

Abstract: this article will focus on the theoretical foundations of the methods of conducting foreign exchange transactions in commercial banks and improving the analysis and prospects for the development of existing problems. The article also presents the relationship of foreign exchange transactions of developed countries and the profitability of the banking sector with existing problems in introducing their use into the economy of the Republic of Uzbekistan, as well as author's approaches and proposals to eliminate them.

Key words: currency, currency system, currency transactions, commercial banks, exchange rate, financial transactions, commercial brokers, currency policy, currency exchange, interest rates, leverage, profitability.

Аннотация: в данной статье реч пойдет о теоретических основах способов осуществления валютных операций в коммерческих банках и совершенствовании анализа и перспективах развития существующих проблем. В статье также представлена связь валютных операций развитых стран и прибыльности банковского сектора с существующими проблемами при внедрении их использования в экономику Республики Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: валюта, валютная система, валютные операции, коммерческие банки, обменный курс, финансовые операции, коммерческие брокеры, валютная политика, обмен валюты, процентные ставки, кредитное плечо, доходность.

KIRISH

Jahon amaliyotida valyuta siyosatidan to'lov balansini muvozanatlashtirish, milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash va shu asosida davlatning tashqi iqtisodiy pozitsiyasini barqarorlashtirishda keng foydalaniadi. Ayni paytda valyuta siyosati shakllaridan foydalanish va uning samaradorligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda farq qiladi. Chunonchi, rivojlangan mamlakatlar diskont siyosati orqali kapitallar harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani holda rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta siyosatini amalga oshirishda, asosan, deviz siyosati va valyutani tartibga solish mexanizmlariga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberalallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberalallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratishga qaratilgan. Valyuta kursi siyosatining tashqi savdoni rag'batlanirishdagi rolining susayishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari narxlarining tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini pasaytirdi [1].

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston stonda valyuta siyosatini erkinlashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlanirish borasida izchil islohotlar amalga oshirish maqsadi qo'yilgan [2]. Ayni paytda valyuta siyosatini liberalallashtirish natijasida iqtisodiyotda dollar-lashuv darajasining sezilarli oshganligi, inflyatsion targetlash rejimiga o'tish sharoitida valyuta kursining inflyatsiya darajasiga ta'siri yuqoriligi, tashqi qarz hajmidagi o'sish tendensiyasi joriy valyuta bozori likvidliligini oshirish, muddatli valyuta bozorini rivojlanirish, kriptoaktivlarni tartibga solishning milliy tizimini shakllantirish kabi yo'nalishlarda kompleks choralar ishlab chiqishni taqozo etadi.



MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda dunyoning yetakchi oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, nufuzli xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tomonidan tijorat banklarida valyuta operatsiyalari amaliyotini shakllantirish bo'yicha turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoxda. Jumladan, E.Karl, S.Ray, M. Shannonlar: "valyuta ayriboshlash operatsiyalarini amalga oshirishda banklarning rentabelligiga ko'plab omillar, shu jumladan, davlat islohotlari va me'yoriy hujjatlar tufayli bankka xos (ichki) va makroiqtisodiy asoslar (tashqi) ta'sir qiladi", – deya fikr bildirganlar. Makroiqtisodiy omillar iqtisodiyotning xatti-harakatlarini o'rganadi va bu omillar valyuta kursi, foiz stavkasi, inflyatsiya darajasi va yalpi ichki mahsulotdir[3].

T.Ovoe va A. Ovoelar "valyuta kurslari foiz stavkalariga ta'sir qilishini va leveraj qiymati orqali rentabellikka bilvosita ta'sir ko'rsatishini" ta'kidladilar[4]. N.S. Sayyidi esa "yuqori valyuta kurslari tijorat banklarining chet el valyutasini sotishdan tushgan daromadlarini oshiradi, bu esa rentabellikni oshiradi. Yuqori foiz stavkalari tijorat banklarining foiz daromadlarining ko'payishiga olib keladi, ammo bu kreditlarga bo'lgan talabning pasayishiga olib keladi va shuning uchun foiz daromadlarining o'sishini kamaytirishiga olib kelishi" haqida fikr bildirgan. Ushbu omillar bilvosita bo'lib, ular nazorat qilinmaydi, ammo bank rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin va banklarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Banklarning valyuta operatsiyalardan rentabelligi asosida banklarning past sotib olish va yuqori sotish sindromi va boshqa manbalar bo'yicha ularning operatsiyalari natijasida kelib chiqadigan to'lovlar va foizlar ko'rinishidagi spekulasionlari yotadi[5]. A.T. Ojo va P.O. Alegelar "valyuta kursi sotiladigan va sotilmaydigan tovarlarning narxlari va rentabelligiga bevosita ta'sir qiladi va nisbiy narx qisqa va o'rta muddatli istiqbolda resurslarning taqsimlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qildilar. Markaziy banklar so'nggi paytlarda valyuta kursining o'sishini rivojlangan mamlakatlarda nolga yaqin foiz stavkalarining saqlanib qolishi natijasida yuzaga kelgan rivojlangan mamlakatlardan o'tasidagi foiz stavkalarining sezilarli farqlari bilan izohlaydilar". Valyuta ayriboshlash va valyutalarning milliy iqtisodiyotdagi ayriboshlash rolini, shuningdek, valyuta bozorlaridagi faol moliya instituti sifatida banklar o'tasidagi munosabatlarni valyuta kurslarining o'zgarishi xavfi nuqtasi nazaridan tushunish juda muhimdir[6].

A.S. Bakarening fikricha, foyda olish uchun banklar, bankirlar va bank menejerlari chet el valyutasi bilan operatsiyalarni amalga oshirishda bank foydasi konsepsiyasini to'liq tushunishlari va valyuta kursi o'zgarishlaring valyuta zaxiralari va daromadlariga ta'sirini o'rganishlari kerak, shunda ular chet el valyutasi bilan operatsiyalarni amalga oshirishda qanday xavf tug'dirishi mumkinligini bilib olishlari mumkin. Shunday qilib, valyuta kursining ichki va tashqi bozorlarda mahalliy sanoatning xorijiy sanoatga nisbatan raqobatbardoshligiga doimiy ta'siri, shuningdek, ichki va xalqaro makroiqtisodiy muhitdagi kutilmagan o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan noaniqlik jiddiy e'tiborni talab qiladi. Valyuta kurslarining beqarorligi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlar tufayli aksariyat mamlakatlardan bir vaqtning o'zida valyuta kurslarini isloh qilmoqdalar va mamlakatlardan iqtisodiyotini rag'batlantiradigan yoki barqaror o'sish va rivojlanish darajasiga erishishga imkon beradigan turli xil valyuta kurslari tizimlarini joriy qilmoqdalar[7]. Masalan, Pokiston valyuta kurslari tizimini tartibga solinadigan suzuvchidan tijorat banklari va rasmiy dilerlarga chet yel valyutasida operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan o'zgaruvchan bozor tizimiga o'zgartirdi.

Umuman olganda, hozirgi kunda mamlakatimizda valyuta siyosatini erkinlashtirishda nafaqat valyuta siyosatining bozor mexanizmlarini joriy qilish amaliyotini takomillashtirishga, balki xo'jalik subyektlari eksport salohiyatini yuksaltirishni rag'batlantirishning muqobil usullariga ham e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish uchun tijorat banklari tomonidan eksport kreditlarini ajratish amaliyoti shular jumlasidandir. Shuningdek, savdo rejimini erkinlashtirish bo'yicha ham muhim qadamlar tashlanayotganligi, respublikamizning Jahon savdo tashkilotiga a'zoli bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlarni ta'minlashga jiddiy yondashuv ham kelgusida valyuta siyosati mexanizmlarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'jalik aloqalarining tobora globallashuvi, mamlakatlar milliy iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi va iqtisodiy integratsiyasining chuqurlashishi jahon iqtisodiyoti rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday sharoitda mamlakatda makroiqtisodiy vaziyatni tartibga solishda valyuta kursi asosiy instrumentlardan biri bo'lib, makroiqtisodiy masalalarni hal etishda uning roli kuchayib bormoqda. Xususan, valyuta kursi muhim makroiqtisodiy



sodiy ko'rsatkichlar, jumladan, inflyatsiya darajasi, to'lov balansi holati va davlat byudjetining ko'rsatkichlariga hamda mamlakat pul bozoridagi talab va taklif shakllanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazadi.

Bunda valyuta kursi rejimining qaysi turi tanlab olingani alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekistonda rasman "erkin suzuvchi" valyuta kursi rejimi amal qiladi.


Umuman, O'zbekiston so'mi kursining shakllanishiga mamlakatimiz ichki valyuta bozoridagi talab va taklif dinamikasi, asosiy savdo hamkor-davlatlarda milliy valyuta kursidagi o'zgarishlar hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining valyuta kursi bo'yicha kutilmalari muhim ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari 1992-yilda tashkil etilgan "O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi" AJ tomonidan tashkil etiladigan birja savdolari, tijorat banklarining yuridik shaxslar bilan valyuta amaliyotlari va aholi uchun ayrboshlash punktlari hamda Markaziy bankning to'g'ridan to'g'ri valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasining chet el valyutasi oldi-sotdisi bo'yicha birja savdolari qoidalari"ga asosan kiritilgan yangi o'zgartirishlarga ko'ra, 2021-yil 15-fevraldan boshlab valyuta birjasida "onlayn platforma" orqali zamonaviy auksion uslublarini qo'llagan holda chet el valyutasi oldi-sotdisini amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Ushbu o'zgarishlarga muvofiq tijorat banklarining valyuta birjasida mijozlar topshiriqnomasi asosida ishtirok etish amaliyoti bekor qilinib, valyuta operatsiyalarini xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan to'g'ridan to'g'ri va kun davomida amalga oshirish imkonini berdi. Shuningdek, banklar tomonidan yuridik shaxslarga xuddi jismoniy shaxslar bilan bo'lgani kabi chet valyutasini sotish va sotib olish kursini kotirovkalash imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, aholiga valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida valyuta ayrboshlash infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar davom ettirilmoqda hamda valyuta ayrboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, valyuta ayrboshlash infratuzilmasini rivojlantirish hamda uni aholi punktlaridagi joylashuv zichligini oshirish maqsadida valyuta ayrboshlash shoxobchalarining umumiy soni (avtomatlashtirilgan shoxobchalar bilan birga) 4,2 ming taga yetkazildi va 2021-yilga nisbatan 21 foizga ko'paydi. Jismoniy shaxslar bilan valyuta ayrboshlash operatsiyalari aylanmasi (chet el valyutasi xaridi va sotuvi) hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 barobarga o'sib, jami 20,8 mlrd dollarni tashkil etdi.



1-rasm. 2021-2022-yillarda jismoniy shaxslarning valyuta ayrboshlash operatsiyalari hajmi¹, mln dollar.


Yuqorida keltirilgan 1-rasmga ko'ra 2022-yilda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan jami 11,9 mlrd. dollar miqdorida 2021-yilga nisbatan 1,7 barobarga ko'p xorijiy valyuta sotib olingan.

Bunda valyuta ayrboshlash operatsiyalarining ijobjiy saldosini 2021-yildagi 2,5 mlrd. dollardan 3 mlrd. dollar-gacha ko'paygan va ichki valyuta bozorida qo'shimcha taklif omili bo'lib xizmat qilmoqda. Jismoniy shaxslardan xarid qilingan chet el valyutasida 1 000 dollargacha bo'lgan tranzaksiyalarning jami umumiy tranzaksiyalardagi ulushi 2021-yildagi 48 foizdan 56 foizgacha oshgan bo'lsa, 1 000 dollardan yuqori bo'lgan tranzaksiyalarning ulushida esa 52 foizdan 44 foizgacha pasayish kuzatilgan.

1 <https://cbu.uz/> сайти маълумотлари асосида тузилди



Shuningdek, jismoniy shaxslarga sotilgan chet el valyutasida 1 000 dollargacha bo'lgan tranzaksiyalarning jami tranzaksiyalar hajmidagi ulushi 25 foizni hamda 1 000 dollardan yuqori bo'lgan tranzaksiyalar hajmi jami tranzaksiyalar hajmining 75 foizini tashkil etgan.




2-rasm. 2022-yilda avtomatlashtirilgan valyuta ayriboshlash bankomatlarining valyuta ayriboshlash operatsiyalari hajmi², mln. dollar.

Keltirilgan 2-rasmga ko'ra, 2022-yilda jami valyuta ayriboshlash operatsiyalaridagi dollarning ulushi o'zgarishsiz 99 foizda qolgan bo'sada, tijorat banklari tomonidan Rossiya rublining xarid va sotuv hajmining ulushlari mos ravishda 0,7 va 0,6 foizni tashkil etgan. 2022-yilda aholi gavjum joylarda, turistik zonalar, aeroportlar, vokzallar, savdo majmualari va bozorlarda "24/7" rejimida ishlovchi avtomatlashtirilgan valyuta ayriboshlash shoxobchalari soni 2021-yilga nisbatan 31 foizga ko'payib, 2,1 mingtaga yetgan.

Shuningdek, mazkur bankomatlar orqali valyuta ayriboshlash operatsiyalar aylanmasi miqdori 2021-yilga nisbatan 17 foizga ko'payib, 476 mln. dollarni tashkil etgan. 2022-yilda "24/7" rejimida ishlovchi avtomatlashtirilgan valyuta ayriboshlash bankomatlari orqali jismoniy shaxslardan sotib olingan naqd chet el valyutasi 238 mln. dollarni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 27 foizga kamaygan bo'sa, jismoniy shaxslarga 100 dollargacha bo'lgan miqdorda sotuv amaliyoti orqali jami 238 mln. dollar yoki 2021-yilga nisbatan 2,8 barobar ko'p valyuta mablag'lari sotilgan.

Xalqaro zaxiralardagi valyutalar tarkibi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, valyuta va pul bozoridagi holatlar, valyutalarining o'z qiymatini saqlashi va daromadiligi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib shakllantirish bo'yicha doimiy ravishda choralar ko'rib borilmoqda.



3-rasm. Valyuta aktivlari bo'yicha foizli daromad dinamikasi³

2 <https://cbu.uz/> сайти маълумотлари асосида тузилди

3 <https://cbu.uz/> сайти маълумотлари асосида тузилди



Yuqoridaq 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rindaniki, 2022-yilda valyuta aktivlarini xorijiy hamkor-banklarga mudatli depozitlarga joylashtirishdan jami 184 mln. dollar miqdorida foizli daromad olindi, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 38 mln dollarni tashkil qilgan. 2022-yilda foizli daromadning oshishi xalqaro pul bozorida foiz stavkalarining ko'tarilishi bilan izohlanadi.

Xalqaro zaxiralardagi valyutalar tarkibi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, valyuta va pul bozoridagi holatlari, valyutalarning o'z qiymatini saqlashi va daromadliligi kabi xususiyatlardan kelib chiqib shakllantirish bo'yicha doimiy ravishda choralar ko'rib borilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari o'rtasida mijozlar (yuridik shaxslar) jalb qilishga bo'lgan raqobat muhitini yanada yaxshilash, ular tomonidan yuridik shaxslarga taklif etilayotgan valyuta sotish va sotib olish kurslarining jozibadorligini oshirish, ichki valyuta bozorida tadbirkorlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun zarur bo'lgan mablag'larni o'zlarini istagan bank orqali sotish yoki sotib olishda yanada qulayliklar yaratish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning valyuta oldi-sotdi operatsiyalarini istalgan bankda (asosiy hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi bankni o'zgartirmagan holda) amalga oshirish imkoniyati yaratish lozim.

So'nggi yillarda eksportchilarni rag'batlantirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi, ularga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ko'plab imtiyozlar berildi, eksport faoliyatini tashkil etish bo'yicha qator tartibotlar bekor qilindi. Eksport borasida mavjud imtiyozlarga qaramasdan valyuta tushumini majburiy sotish talabi eksportni yanada rag'batlantirish yo'lida asosiy to'siq bo'lib, eksportchilar o'z valyuta tushumini to'liq tasarruf etish imkoniyatiga ega emas edi, bu esa eksportni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan siyosatga mos kelmaydi.

Shu sababli mazkur mamlakatimizda tovarlar (ish, xizmatlar) eksportidan tushgan valyuta tushumini majburiy sotish tartibi mulkchilik shakli yoki eksport qilinayotgan mahsulot turidan qat'i nazar barcha eksportchi tashkilotlar uchun butunlay bekor qilindi.

Bozor tamoyillari asosida valyuta resurslari oqimining samaradorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, shuningdek, tashqi savdoda valyuta siyosatining rag'batlantiruvchi rolini oshirish maqsadida milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan ayrboshlash kursi faqatgina valyuta birjasining banklararo elektron savdolarida valyutaga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bunda ayrboshlash kursini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish maqsadida banklararo savdolarda Markaziy bankning ishtiroti kamaytiriladi. Alovida hollarda Markaziy bank ayrboshlash kursining haddan ortiq tebranishini bartaraf etish uchun xorijiy valyutani sotish yoki sotib olish operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Ayrboshlash kursini egiluvchan holda tartibga solish respublikaga keladigan barcha valyuta resurslari (eksport tushumi, transchegaraviy pul o'tkazmalari va boshqalar) oqimining rasmiy bozorga kelib tushishi orqali chet el valyutasiga bo'lgan jami talab va taklif mutanosibligini ta'minlash va oltin-valyuta zaxiralari hajmlarini avvalgidek yuqori darajada saqlab qolish imkonini beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 сентябрдаги "Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5177-сонли Фармони. lex.uz>docs/3326421
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022–2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони. lex.uz>docs/5841063
3. Karl E., Ray C. & Shannon M. (2009). Principles of Economics, Pearson International Edition, Prentice Hall.
4. Owoeye T. and Owoeye A. (2013). Exchange Rate Volatility and Bank Performance in Nigeria. Asian Economic and Financial Review, 3(2):178-185
5. Sayedi N.S. (2013). Bank-specific, industry-specific and macroeconomic determinants of banks profitability in Nigeria. Journal of Finance, 1(1):11-18
6. Ojo A. T. and P. O. Alege (2014). Exchange Rate Fluctuations And Macroeconomic Performance In Sub-Saharan Africa: A Dynamic Panel Cointegration Analysis, Asian Economic and Financial Review, 4(11): 1573-1591
7. Bakare A. S (2011). The consequences of foreign exchange rate reforms on the performances of private domestic investment in Nigeria, International journal of Economics and Management Sciences1(1):25-31.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

